

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Z.M.Bobur nomli Andijon Davlat Universiteti**

**“Pedagogika” fakulteti
“Musiq va uni o'qitish metodikasi” kafedrası
Axmadjonova Umidaning**

“Ritm va metr” mavzusida

KURS ISHI



Ilmiy raxbar:

Karimova M

Andijon 2015

Mavzu: Ritm va metr

REJA :

Kirish.

- 1. Ritm va metr**
- 2. Oddiy metr o'lchovlar.**
- 3. Murakkab metr o'lchovlar.**
- 4. Aralash metr o'lchovlar.**
- 5. O'zgaruvchan metr o'lchovlar.**
- 6. Sinkopa, Temp, Dirijorlik.**
- 7. Xulosa.**
- 8. Ilova .**
- 9. Foydalanilgan adabiyotlar.**

Kirish.

«Musiqaning» elementar nazariyasi kursi musiqa nazariyasining asosi xissoblanadi. Uni o'zlashtirmoq asosiy musiqa elementlar tilini va bir-biriga bog'liqligini chuqur o'rganmoq, musiqa so'zini qonunga muvofiq, xar-xil musiqa-nazariy ko'rinish, tushuncha, ta'rif va terminlar o'quvchilarni musiqa-nazariy o'ylashga va rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilar bilimini musiqa asarini analiz qilishda o'rgangan bilimini tez va erkin qo'llashi lozim. Shuning bilan elementar musiqa nazariya kursi o'quvchilarni boshqa musiqa nazariya fanlariga tayyorlashi kerak. Garmoniya, Musiqa taxlili cholg'ushunoslik va boshqalarga. Elementar musiqa nazariya fani musiqa didini o'stirishda, Musiqa-estetik tarbiyasini shakillantirishda yordam beradi. Axir nazariyani o'zlashtirilayotganda eng yaxshi xalq kuylaridan, chet el musiqasidan klassikadan, rus va sovet musiqalaridan foydalanadi, faqat eshitib idrok qilishda va xis-tuyg'ulari, kechinmalarni sezish o'quvchilarni badiiy didini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Musiqa predmetiga davlat ta'lim standartini joriy etilishi, milliy, musiqiy merosimizdan foydalanishni hamda hududiy vohalarni san'ati va madaniyati, u yerdagi mahalliy xalq an'analari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ta'lim standarti o'zining tuzilishiga va mazmuniga ko'ra, davlat, xudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda yangi (1-7) sinflar uchun yangi dastur tuzildi. Dastur asosida darsliklar metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratilmoqda. yetti yillik musiqa o'qitish davrida o'quvchilarni go'zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

Shuningdek, o'zbek xalq musiqa merosimizni tarixi va xozirgi kun talablarini kuzatib o'rganib borishi shart. Chunki, maktabda musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda «Musiqa madaniyatini» tarkib toptirishdir.

Shunga ko'ra oddiydan murakkabga printsipli asosida musiqaviy asarlar tanlanadi. Boshlang'ich sinfda dars strukturasi beshta faoliyat turidan iborat bo'ladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash
4. Musiqa xarakteriga mos harakatlar bajarish
5. Bolalar cholg'u asboblardan jo'r bo'lish

Dars mazmuni chuqurlashib, o'quvchilar bilim va malakalarini kengayishiga xizmat qiladi. Musiqa darsi uchta faoliyat asosida olib boriladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash




Har bir faoliyat bir-biri bilan bog'liq bo'lib, dars mazmunini, ya'ni bir butunlikni ta'minlaydi. CHorak mavzulari, yil mavzulariga bo'ysunadi. Dars samaradorligini oshirishda o'quvchilarni bilim va malakalarini baholash muhim pedagogik ahamiyatga egadir. Qo'shiq kuylash bilan birga, ularni ko'proq fikr bildirish, bahsga tortish va amaliy faoliyatiga ko'proq jalb etish va odilona baholash lozim bo'ladi. Shunday qilib, musiqa darslari, yangi dastur asosida rejalashtirilib, o'quvchilarni milliy musiqamizga mehr-muhabbat va qiziqish uyg'otishi lozim.

1.

Ritm va metr

O'zaro bog'lanib izchil kelgan tovushlar cho'zimi ritm deyiladi. Musiqada tovushlar cho'ziminin ketma-ket kelishi natijasida ularning ma'lum vaqt ichida almashib turishiga aytiladi. Tovushlar muayyan tartibda, cho'zimlar bog'langan xolatni ritmik turkum (usul) deyiladi. Musiqada asosiy cho'zimlarga -butun, yarim, chorak, nimchorak va x.k. deyiladi, ularning teng qismga bo'linish natijasida xosil bo'lgan cho'zimlar esa

- a) Triol'; b) Kvintol'; v) Sekstol' ;g) Septol'; d) Duol' -yoniga nuqta qo'yiladi.
- e) Kvartol' -to'rt qismga bo'linadi.




MUSIQAVIY AKTSENT (ZARB) METR, O'LCHOV, TAKT.

TAKT CHIZIGI, TAKT OLDI.

Tovushlarning ma'lum bir vaqtlarda teng xissalarga bo'lib, almashib turishi musiqada bir tekis xarakatni xosil qiladi (bunday xarakatga pul'sasiya xam deyiladi). Tovushlarni ana shu xarakati vaqtida ayrim xissalar urg'usi ajralib turadi, bu urg'ularga aktsent (zarb) deyiladi. Aktsent tushadigan xissalar kuchli xissalar, aktsent tushmaydigan xissalarga esa kuchsiz xissalar

deyiladi. Kuchli va kuchsiz xissalarning tekis almashinib turishi metr deyiladi. Metr xissaning ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi- o'lchov deyiladi. Nota chizig'iga skripka kaliti va al'teratsiya belgilaridan keyin qo'yiladi. Musiqa asarining bir kuchli xissadan ikkinchi bir kuchli xissagacha bo'lgan oraligi takt deyiladi, va vertikal takt chizig'i qo'yiladi. Agar musiqa asari kuchsiz xissadan boshlansa takt oldi deyiladi.

НИМЧОРАК НОТА



ТАКТ ОЛДИ




ODDIY METR VA O'LCHOVLAR

Aktsentlar (kuchli xissa) xar bir xissadan keyin takrorlansa ikki xissali metr o'lchovi deyiladi, agar xar ikki xissadan keyin takrorlansa uch xissali metr deb ataladi.

a) Ikki xissali o'lchovlar ; $2/2$; $2/4$; $2/8$:

b) Uch xissali o'lchovlar ; - $3/2$; $3/4$; $3/8$; $3/16$:



Bir takt ichida ritmlar turkumlansa, u cho'zimlar turkumlanishi deyiladi. Bunda asosiy xissalar bir biridan ajraladi. Masalan ;



ifidalaydi



ifidalaydi



Moderato

Лола

А. Ихтиёров музыкаси



Рақс

Allegro moderato


Ш. Рамазанов музыкаси



MURAKKAB METR VA O'LCHOVLAR

Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab metrlar xosil bo'ladi. Murakkab metr ikki va undan xam ko'proq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin, shuning uchun bir necha kuchli xissaga egadir. Murakkab metrda birinchi xissa kuchli xissa, keyingilari esa nisbatan kuchli xissa deyiladi.

- a) Turt xissali o'lchov; - $4/4$, $4/2$ - kam uchraydigan $4/8$:
- b) Olti xissali o'lchov ; - $6/4$, $6/8$ - kam uchraydigan $6/16$:
- v) To'qqiz xissali o'lchov ; - $9/8$ - kam uchraydigan $9/4$, $9/16$:
- g) O'n ikki xissali o'lchov ; - $12/8$ - kam uchraydigan $12/16$.





Мен солдатман

Т. Жумаев музыкаси

Allegro moderato

ARALASH METR VA O'LCHOVLAR

Ikki yoki bir necha xar-xil ko'rinishdagi oddiy metrlar birlashuvi - murakkab aralash metrlar deyiladi, ifodalovchi o'lchovlar esa aralash o'lchovlar deb ataladi.


Aralash o'lchovlar musiqa da kam uchraydi. Bular orasida 5 va 7 xissali o'lchovlar ko'proq ko'llaniladi: 5/4, 5/8: 7/4, 7/8 : Aralash o'lchovlar murakkab o'lchovdan farq qiladi.

1) Aralash o'lchovlarning tuzilishi ularni xosil qiladigan oddiy o'lchovlarning ketma-ket kelishiga bog'liqdir, bu esa kuchli va nisbatan kuchli xissalarning almashib turishiga xam ta'sir etadi.

2) Taktning kuchli va nisbatan kuchli xissalarning almashinib turishi tekis bolmaydi.

$5/4 (2/4 + 3/4) - 5/4 (3/4 + 2/4)$

$7/4 (3/4 + 2/4 + 2/4) - 7/4 (2/4 + 2/4 + 3/4)$



Оқшомда ола отлиқ

Allegro moderato

Ўзбек халқ қўшиғи



Салом

Con moto scherzando

Тоҷик халқ қўшиғи



O'ZGARUVCHAN METR VA O'LCHOVLAR

Musiqada metrning bir asar davomida o'zgarib turishi, ayni paytda o'lchovning xam o'zgarib turish xollari uchraydi, bunday o'lchovlar o'zgaruvchan o'lchovlar deyiladi. O'zgaruvchan o'lchovlar xalq qo'shiqlarida, rus klassik bastakorlari asarlarida uchratish mumkin. O'lchovlar tekis va notekis almasha, kalit belgisi yonidagi kasr shaklida ikkita raqam qo'yiladi.



Ай жоней

Moderato


Қорақалпоқ халқ қўшиғи

Musical notation for the song 'Ай жоней' (Ay Zhonay) by the Karakalpakstan folk song. The notation is in 2/4 time, marked Moderato, and features a key signature of one flat (B-flat). The melody is written on a single staff with various note values and rests, including a repeat sign and a fermata.

Шаҳноз

Andantino.

Ўзбек халқ қўшиғи



Ritm va metr aktsentlarining bir-biriga to'g'ri kelmay qolishi, ritmdagi izchillik buzilishiga sinkopa deyiladi. Sinkopa musiqada ko'p uchraydi, u metrning kuchsiz xissasidagi tovushning navbatdagi kuchli xissasida xam eshutilishidan xosil bo'ladi. Buning natijasida zarb metrning mana shu kuchsiz xissasiga o'tadi. Metrning biror xissasida kuchsiz davriga to'g'ri kelgan tovush bundan keyingi kuchli davrga to'g'ri kelganda xam o'z kuchini saklab ko'ladi .

Sinkopalarning asosiy shakli:

- a) Takt aro sinkopalar (2/4, 3/4)
- b) Takt ichidagi sinkopalar (2/4, 3/4)
- v) pauzadan keyin



TEMLAR

Xarakat tezligi temp (sur'at) deyiladi. Templar uchta asosiy turga bo'linadi -vazmin, o'rta va tez. Templarni aniqlashda asosan Italiyancha iboralar qo'llanilgan. Keyinchalik esa sovet vaktida rus iboralar ishlatilgan Mustaqilligimizdan keyin esa O'zbek bastakorlar yaratgan asarlarda O'zbekcha iboralar paydo bo'ldi.

Vazmin templar largo - keng, Lento - cho'zib, Adajio – og'ir, Grave -juda og'ir O'rtacha templarga -Andante – oso'ishta, oshiqmasdan, Andantino –andantedan sal tezlatib, Modegato –

o'rtacha, Sostenuato - salobatli Allegretto - jonlanib, allegro moderato – o'rtacha tez. Tez templar - Allegro -tez, Vivo - jonliroq, Vivace - jadal, presto - tez oshikib prestissimo -juda tez.


Musiqqa ta'sirchan va ifodali chiqishi uchun tezlatish va susaytirish iboralar ishlatiladi. Templarni yanada aniqroq bilib olish uchun metronomdan foydalaniladi.

Vazmin	O'rtacha	Tez
1. largo - keng, 2. Lento - cho'zib, 3. Adagio – og'ir, 4. Andante – oso'ishta,	1. Modegato – o'rtacha, 2. Sostenuato - salobatli 3. Andantino –andantedan sal tezlatib,	1. Vivo - jonliroq 2. Vivace - jadal, 3. Allegro -tez, 4. presto - tez oshikib

DIRIJYORLIK QOIDALARI


Xor, orkestr yoki ansambl uchun yozilgan musiqa asari ijrochiligini boshqarish, keng ma'noda dirijyorlik deyiladi. Qo'shik aytilganda yoki sol'fedjioda dirijyorlik deb quyidagilar nazarda tutiladi; birinchidan, xisoblab turish, ya'ni takt xissalari almashuvi va ularning cho'zim vaktini ko'rsatib turish, ikkinchidan, mazkur asar tempini aniklash. Dirijyorlik qoidalari ikki, uch va to'rt xissali ko'l xarakatlariga asoslanadi.

Чап қўл




2 / 4

Ўнг қўл




Чап қўл




3 / 4

Ўнг қўл




Чап қўл



4 / 4

Ўнг қўл



7

XULOSA

Prizidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov asarlari «Ta'lim to'g'risidagi qonun», «Qadrlar tayyorlash milliy dasturi», Davlat farmonlari, mutafakkirlar fikrlari, olimlarning risolalari, dastur, darslik, o'quv qo'llanmalar tashkil etadi.

Muxtaram Prizidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov «Xalqning ma'naviy ruhiyatini mustaxkamlash va madaniyatini rivojlantirish, O'zbekistonda davlat va jamiyatning muxim vazifasidir» deb ta'kidlaydi.

Bola tarbiyasida o'zbeklarning o'ziga xos tarixiy sinovlaridan o'tgan ajoyib an'analari bor. Xalqimiz tarbiya borasida yetuk milliy ma'naviyati va madaniyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarnig tarixiy qismi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Buyuk bobomiz Alisher Novoiy «Kim yomon ahloqin etsa bartaraf bordur inson zotida unga sharaf» degan edilar. Yana bir buyuk pedagog olim Abdulla Avloniy shunday degan edilar: «Tarbiya o'quvchilar targ'ib qilgani kabi o'qituvchi ham bolani musiqa orqali ruhiyatiga, aqliy

rivojlanishiga, diqqat markaziga ta'sir etib ularni poklik, vijdonli, kattalarga xurmat, vatanparvarlik kabi tuyg'ularini tarbiyalaydi».

O'zaro bog'lanib izchil kelgan tovushlar cho'zimi ritm deyiladi. Musiqada tovushlar cho'ziminin ketma-ket kelishi natijasida ularning ma'lum vaqt ichida almashib turishiga aytiladi. Tovushlar muayyan tartibda, cho'zimlar bog'langan xolatni ritmik turkum (usul) deyiladi. Musiqada asosiy cho'zimlarga -butun, yarim, chorak, nimchorak va x.k. deyiladi, ularning teng qismga bo'linish natijasida xosil bo'lgan cho'zimlar esa

Tovushlarning ma'lum bir vaqtlarda teng xissalarga bo'lib, almashib turishi musiqada bir tekis xarakatni xosil qiladi (bunday xarakatga pul'sasiya xam deyiladi). Tovushlarni ana shu xarakati vaqtida ayrim xissalar urg'usi ajralib turadi, bu urg'ularga aktsent (zarb) deyiladi. Aktsent tushadigan xissalar kuchli xissalar, aktsent tushmaydigan xissalarga esa kuchsiz xissalar deyiladi. Kuchli va kuchsiz xissalarning tekis almashinib turishi metr deyiladi. Metr xissaning ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi- o'lchov deyiladi. Nota chizig'iga skripka kaliti va al'teratsiya belgilaridan keyin qo'yiladi. Musiqa asarining bir kuchli xissadan ikkinchi bir kuchli xissagacha bo'lgan oraligi takt deyiladi, va vertikal takt chizig'i qo'yiladi. Agar musiqa asari kuchsiz xissadan boshlansa takt oldi deyiladi.

Aktsentlar (kuchli xissa) xar bir xissadan keyin takrorlansa ikki xissali metr o'lchovi deyiladi, agar xar ikki xissadan keyin takrorlansa uch xissali metr deb ataladi.

Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab metrlar xosil bo'ladi. Murakkab metr ikki va undan xam ko'proq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin, shuning uchun bir necha kuchli xissaga egadir. Murakkab metrda birinchi xissa kuchli xissa, keyingilari esa nisbatan kuchli xissa deyiladi.

Ikki yoki bir necha xar-xil ko'rinishdagi oddiy metrlar birlashuvi - murakkab aralash metrlar deyiladi, ifodalovchi o'lchovlar esa aralash o'lchovlar deb ataladi.

Musiqada metrning bir asar davomida o'zgarib turishi, ayni paytda o'lchovning xam o'zgarib turish xollari uchraydi, bunday o'lchovlar o'zgaruvchan o'lchovlar deyiladi.

Ritm va metr aktsentlarining bir-biriga to'g'ri kelmay qolishi, ritmdagi izchillik buzilishiga sinkopa deyiladi.

Xarakat tezligi temp (sur'at) deyiladi. Templar uchta asosiy turga bo'linadi -vazmin, o'rta va tez. Xor, orkestr yoki ansambl uchun yozilgan musiqa asari ijrochiligini boshqarish, keng ma'noda dirijorlik deyiladi.

8

ILOVA

Мақсади	Вазифаси
---------	----------

«Музиканинг элементар назарияси» фани олийгоҳларда талабаларни касбий тайёргарлигининг таркибий қисми бўлиб, бўлажак мутахассис фаолияти учун зарур бўлган назарий билим ва амалий кўникмаларни ривожлантиришни кўзда тутди.	Фаннинг асосий вазифаси - талабанинг мустақил тафаккурини, унинг таҳлил эта олиш қобилиятларини шакллантириш ва ривожлантиришдир. Талаба фанни назарий материални тўлиқ ўзлаштириши, турли адабиёт ва нота матнлари билан ишлай олиши, назарий материални оғзаки ёки ёзма равишда профессионал даражада баён эта олиши, нота матнини аниқ ёза билиши, фортепианода идро этиши, олинган билимларини музика амалиётида куллай олиши лозим.
--	--

Фаннинг назарий асослари

«Музика элементар назарияси» фанини олиб бориладиган иш шакли турлича. Буларга материални тушунтириш ва мавзу мазмунини баён қилиш, фортепианода музика адабиётидан мисоллар чалиш. «Соль» калитида куйлар, секвенциялар, цифрловкалар, гаммалар, интерваллар, аккордлар, транспозицияларни чалиш. Гаммалар, интерваллар аккордлар тузиш, турли калитларда ёзиш, транспозиция, группировка, мелизмларни расшифровка қилиш, музика асарларини таҳлил қилиш, куй басталаш. Назарий бўлимда курс иши ёзиш бўйича ёзма ва оғзаки топшириқларни бажариш. Дарснинг шакли ҳам турлича бўлиши мумкин. Масалан, маъруза, ижодий вазифани текшириш, назорат иши, оғзаки сўров, фортепианода ижро этиш вазифаларини текшируви. Мустақил таълим ва уй вазифалари - ўқув жараёнининг муҳим қисмидир. Вазифалар «оддийдан мураккабга» тамойилига асосланади.

Фаннинг бошқа фанлар билан боғлиқлиги.

«Музика элементар назарияси» фани барча музика фанлари билан боғлиқ. Гармония, Музика таҳлили, Сольфеджио, Чолғушунослик, Дирижёрлик, Вокал ижрочилиги ва асослари, Хоршунослик ва х.к.

O'Ichovlar

Oddiy o'Ichovlar	Murakkab o'Ichovlar	Aralash o'Ichovlar	O'zgaruvchan o'Ichovlar
-------------------------	----------------------------	---------------------------	--------------------------------

A) 2/2,2/4,2/8.	A) 4/4,4/2,4/8	A) 5/4, 5/8.	Musikiy asar davomida o'lchov o'zgarilsa O'zgaruvchan o'lchovlar dtyiladi.
B) 3/2,3/4,3/8, 3/16.	B) 6/4,6/8,6/16.	B) 7/4, 7/8.	
	B) 9/8,9/4,9/16.		
	Г) 12/8, 12/16.		

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.H.Rahimov «Musika elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami» T.,2006
- 2.O.Azimov “ Garmoniya ” darslik. Nazariy kurs. T., «Qatortol – Kamolot » nashriyoti 2000.
- 3.M.I.Roytershteyn «Основы теоретического музыкознания» М,. «Академа» nashriyoti 2003.
- 4.H.Rahimov «Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami» T., «Alokachi» nashriyoti 2005.
- 5.Sami Aziz o'gli “Garmoniya ” T., Ozbekiston 2002.
- 6.www. Ziyo/ net
- 7.htt//www//urairti//ru
- 8.Ibroximov O., YUnusov .“Solfedjio ” Darsligi T., 2004
9. O'zbekiston – Vatanim manim. III, IV kitob. Sharq . T. 1999, 2000

10.M. Karimova “ Musika nazariyasi” uslubiy ro’llanma
2013 Andijon

11.M. Karimova “ Solfedjio ” uslubiy ro’llanma
2013 Andijon